

**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA  
ILMIY-METODIK MARKAZI**



**YOSH OLIMLAR VA  
TADQIQOTCHILAR MAKtabi**


**MAVZU: Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab  
chiqishda psixologik va pedagogik tamoyillar**

**MUALLIF: Xasanova Sevara G'iyosiddinovna**

**TOSHKENT – 2025**

# Reja

1. Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va zamonaviy yondashuvlar
2. Psixologik tamoyillar: shaxs rivoji, motivatsiya va individual yondashuv
3. Pedagogik tamoyillarning ta'lim mazmuni, metod va natijaviylik asoslaridagi vazifasi
4. Ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda tamoyillarning o'rni



# Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va zamonaviy yondashuvlar

**Pedagogik texnologiya** — bu ta’lim jarayonining ilmiy asoslangan tizimi bo’lib, unda o’quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi va baholanishi aniq metodik asosda amalga oshiriladi.

*(V.P. Bespalko, 1989)*



**Zamonaviy yondashuvlar quyidagilardan iborat:**

- Kompetensiyaga asoslangan yondashuv
- Raqamli texnologiyalar integratsiyasi
- Interaktiv va kommunikativ metodlar
- Differensial va inkluziv ta’lim

# Psixologik tamoyillar: shaxs rivoji, motivatsiya va individual yondashuv

Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda quyidagi psixologik tamoyillar hisobga olinadi:

**Motivatsion yondashuv:** ichki motivatsiyani rag'batlantirish, tashqi omillar bilan uyg'unlashtirish



**Shaxsga yo'naltirilganlik:** o'quvchi psixologik holatini, qiziqishlarini va rivojlanish darajasini hisobga olish

**Individual yondashuv:** intellektual, emotsiyal va ijtimoiy farqlarga moslashtirish

**Konstruktivizm:** bilimlarni tajriba asosida shakllantirish

*Psixologik barqarorlik, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va refleksiya texnologiyalarni samarali qilishda muhim ahamiyatga ega.*

# Pedagogik tamoyillarning ta'lif mazmuni, metod va natijaviylik asoslaridagi vazifasi

01

**Ilmiylik va tushunarlilik** – bilimlar asosli, faktlarga tayangan bo'lishi

02

**Sistemalilik va izchillik** – o'quv materialining mantiqiy ketma-ketligi

03

**Faollik va mustaqillik** – o'quvchi faol ishtirokini rag'batlantirish


04

**Refleksiya** – bilimlarni o'zlashtirish va baholash imkoniyatini berish


05

**O'zlashtirishga yo'naltirilganlik** – amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini ta'minlash

*Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarali ishlashini ta'minlaydigan asosiy pedagogik tamoyillar:*



# Ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda tamoyillarning o'rni



- 01 **Tahlil:** o'quvchilar holati, ehtiyojlari va psixologik portretini o'rganish
- 02 **Loyihalash:** didaktik maqsadlarga mos metod va shakllarni tanlash
- 03 **Eksperiment:** kichik guruhlarda sinab ko'rish va tahlil qilish
- 04 **Moslashtirish va joriy etish:** muhit, fan va bosqichga moslashtirish

*Misol tariqasida, raqamli ta'lim texnologiyalari (AR/VR, LMS, AI-assistentlar) psixologik tayyorgarlik, texnostress va pedagogik motivatsiya darajasiga qarab joriy etiladi*

# Metodik ko'rsatmalar

Ilmiy tadqiqotchilar va o'qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish jarayonida psixologik va pedagogik tamoyillarni qo'llash bo'yicha metodik yondashuvlarni tavsiya etish.

## Faoliyat bosqichlari:




**Tahliliy bosqich.** Talabalar, o'quvchilar ehtiyojlarini aniqlash (psixologik portret, rivojlanish bosqichlari).

**Loyihalash bosqichi.** Ta'lim maqsadiga mos psixologik-pedagogik tamoyillarga asoslangan texnologiyani rejalashtirish.

**Tatbiq etish.** O'qitish metodlari va shakllarini tanlab, ularni amaliyotga tadbiq etish.

**Baholash.** Texnologiyaning samaradorligini o'quvchilarning faolligi, mustaqilligi va natijalari orqali baholash.

# Tavsiya etiladigan vositalar



Refleksiya jadvallari




SWOT-tahlil asosida baholash



Motivatsiyani aniqlash  
testlari

# O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish




**Misol:** Matematika fanidan onlayn kurs ishlab chiqilmoqda. O'quvchilarning turli darajadagi tayyorgarligini hisobga olish uchun qanday funksiyalarni qo'shish mumkin? (Masalan, boshlang'ich, o'rta va yuqori darajadagi topshiriqlar tanlovi, o'zlashtirish tezligiga moslashuvchi testlar).



**Topshiriq:** Siz o'qitayotgan fandan o'quvchilarning individual farqlarini hisobga olgan holda foydalanish mumkin bo'lgan ikkita zamonaviy pedagogik texnologiya (platforma, dastur, ilova) nomini keltiring va ularning qanday imkoniyatlari bu tamoyilga mos kelishini tushuntiring.

# Motivatsiyani oshirish



**Masalan:** Tarix fanidan interaktiv taqdimot yaratishda o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish va ularni faol ishtirok etishga undash uchun qanday elementlardan foydalanish mumkin?

*(Masalan, viktorinalar, virtual sayohatlar, rolli o'yinlar, musobaqalar).*

**Topshiriq:** O'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish va ularning motivatsiyasini oshirish uchun mo'ljallangan bitta zamonaviy pedagogik texnologiya (o'yin platformasi, interaktiv video yaratish vositasi) haqida ma'lumot to'plang va uning afzalliklarini ta'riflang.

# Kognitiv jarayonlarni optimallashtirish



**Misol:** Biologiya fanidan murakkab mavzuni tushuntirish uchun onlayn resurs yaratishda o'quvchilarning tushunishini osonlashtirish va xotirada saqlashini yaxshilash uchun qanday vizualizatsiya usullaridan foydalanish mumkin?

*(Masalan, animatsiyalar, infografikalar, 3D modellar).*


**Topshiriq:** Faningizga oid murakkab mavzuni tanlang va uni tushunarli hamda esda qolarli bo'lishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida qanday vizual materiallar yaratish mumkinligini tasvirlab bering

# Xulosa

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish eng samarali yo'l hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyalarning maqsadi-ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va ta'lim oluvchilar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iborat.





**E'tiboringiz uchun  
rahmat!**